

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Narzullayeva Fayozaning

“Tundaliklar” asarida ijtimoiy-falsafiy muammolar talqini
mavzusida yozgan

kurs ishi

Ilmiy rahbar:

f.f.n. S.Mo'minova

Qarshi – 2012

Mundarija

Kirish.

I BOB. “Tundaliklar” asari – Asqad Muxtorning ijtimoiy-estetik qarashlari majmui.

II BOB. “Tundaliklar” asarida shaxsning ma’naviy - intellektual yetukligi masalasi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.

Asqad Muxtorning nasriy, she’riy, dramatik, adabiy-tanqidiy asarlar merosi qoldi. Bu sermavzuvi adabiy merosi xalqimizning ko’ngil to’ridan joy oldi. Asqad Muxtor nomini XX asr o’zbek adabiyoti namoyandalariining yuksak safiga, klassiklari qatoriga qo’shdi.

Asqad Muxtorning “Tanlangan asarlar” (1958), “99 miniatyura” (1962), “Quyosh belanchagi” (1971), “Sizga aytar so’zim” (1978), “Sirli nido” (1984), “Yillarim” (1990), “99

miniatyura”, “Sizga aytar so’zim”, “Uyqu qochganda”(Tundaliklar) majmualari madaniy hayotimizda katta hodisaga aylandi.

Asqad Muxtor ijodining badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotidagi o’rni quyidagilar bilan belgilanadi:

- umr mazmuni, hayotni anglash, hayot yo’lini belgilab olish haqidagi o’ylar, mushohadalar, kechinmalar she’riyatga yangi chizgi olib kirdi. Kechinmalar asosiga qurilgan mushohada lirikadagi falsafiy yo’nalishni yuzaga keltirdi;

- davr, taqdir, jamiyat, shaxs, kurash, quvonch, tashvish – barini o’z ichiga olgan inson hayoti shoir lirikasidagi badiiy-falsafiy tahlil nuqtasiga aylandi. O’y, his, falsafiy mushohadalar XX asrning o’rtalarida she’riyatda keng uchraydigan ritorika, deklarativlik, quruq madhiyabozlikka chek qo’ydi;

- insoniylik, falsafiy o’ychanlik, aforizmga bo’lgan moyillik, e’tiborga loyiq fikr aytishga intilish, ortiqcha ratsionallikdan qochish bilan birga psixologik ikir-chikirlarga berilib ketmaslik XX asrning 60-yil o’rtalaridan e’tiboran poeziyamiz taraqqiyotida yangi fasl boshlanganidan dalolatdir.

SHu ma’noda, Asqad Muxtor ijodining adabiyotimiz takomilidagi yuksak o’rni va rolini, adib asarlarining o’q ildizini tashkil etgan falsafiy fikrlarini ilmiy jihatdan o’rganish, nazariy umumlashma-xulosalar chiqarish tadqiqot asosini tashkil etdi.

I BOB. “ Tundaliklar ” asari – Asqad Muxtorning ijtimoiy – estetik qarashlari majmui.

Atoqli shoir, nosir va dramaturg Asqad Muxtor 1920-yilda Farg’ona shahrida temir yo’l ishchisi oilasida tavallud topdi. Maktabni tugatgach, O’zbekiston Davlat universitetiga(1938) kirib o’qiydi. So’ng Andijon pedagogika institutida o’zbek adabiyoti kafedrasining mudiri bo’lib ishlaydi.

Asqad Muxtor bir qaror gazeta muharririyatlarida bo’lim mudiri, mas’ul kotib, “SHarq yulduzi” jurnalida bosh muharrir (1960-1965), O’zbekiston Yozuvchilari uyushmasida kotib (1957) bo’lib ishlaydi. “Guliston” jurnaliga, “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” haftaligiga muharrirlik qildi.

Asqad Muxtor “Tilak”, “Tong edi”, “totli damlar” singari ilk she’rlari(1935-1938)da she’riyatning maqsad va vazifasini, shoirning jamiyat oldidagi burchini aniqlab olishga intiladi. U she’riyatga “Qalbga qanot”, “Dardga davo” beruvchi sifatida qaraydi. SHoir ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan “G”alaba ishonchi”, “Jangchining bayram kechasi”, “Tug’ishganlar qaytdi”, “Sog’inish” singari qator she’riy asarlarini yaratib, xalqni fashist bosqinchilariga qarshi kurashga undaydi. Vatan go’zalliklarini, tuganmas

boyliklarinin, xalq hayotidagi katta o'zgarishlarni tasvirlagan "Po'lat quyuvchi"(1947), "Hamshaharlarim"(1949), "Rahmat, mehribonim"(1954), "Chin yurakdan"(1956) she'riy kitoblarini yozdi.

Asqad Muxtor "Mardlik cho'qqisi","Yaxshilikka yaxshilik","Samandar" kabi pyesalar ham yozdi.

Yozuvchiing "Daryolar tutashgan joyda","Qoraqalpoq qissasi","Buxoroning jinko'chalari" kabi qisslarida, "Opa-singillar","Tug'ilish","Davr mening taqdirimda","CHinor","Amu" kabi romanlarida zamonamizning muhim muammolari o'z ifodasini topgan.

"Chin yurakdan" she'riy kitobi, "Hayotga chaqiriq", "Dunyo bolalari" hikoyalar to'plamlari o'zbek bolalar adabiyotini dunyoga tanitdi.

SHoirning "99 miniatyura","Karvon qo'ng'irog'i","Sirli nido", "Yillarim" she'riy kitoblari o'zbek she'riyatida katta voqea bo'lgan. Ularda inson qalbining toblanishlari chuqur intellektual his-tuyg'u vositasida talqin etilgan.

Sofokl, Tagor, Pushkin, Lermontov, Mayakovskiy, Gorkiy, Shevchenko, Blok, Korneychuk asarlari Asqad Muxtor tarjimasida o'zbek kitobxonlarining ma'naviy mulkiga aylangan.

Asqad Muxtor o'z ijodida jahon poeziyasining eng so'nggi tajribalari, zamonaviy poetik tafakkur bilan qadimiy sharq she'riyati donoligini ajoyib bir tarzda tutashtirishga erishdi. Asqad Muxtor she'riyatning qadimiy, ammo hamma davrlar uchun zaruriy dolzarb mavzu-muammolari: inson hayotining ma'nosi, tug'ilish, yashash, o'lim jumboqlari, tabiat sirlari, olamning cheksizligi va yaxlitligi, makon va zamon nisbati, inson tabiati, aql-zakovati, undagi mehr va qahr tuyg'usining qudrati, insonning inson oldidagi burchi, jamiyat va tabiat bilan bir butunligi-shular tevaragida bahs yuritadi.

Asqad Muxtor hamisha xalqning ko'nglini ko'taradigan, odamlar qalbiga quvonch, nur olib kiradigan, ularni o'ylatib qo'yadigan, dunyoning, hayotning sir-asrorlaridan voqif etadigan so'zlarni topib aytadi. Shoir ko'zi bilan hayotga, olamga nazar tashlasangiz, go'yo hayratlar girdobiga tushasiz, dunyo sirga, sehrga to'ladi, har bir narsa, hodisa o'ziga xos ma'no kasb etadi, mavhum tushunchalar moddiy tusga kiradi, ona tabiatga o'zingizni jondosh his etasiz, jimjitlik suronini eshitib turasiz, yaproqni xuddi kitobday o'qiysiz.

Shoirning lirik qahramoni ona yurtga chin farzand ekani bilan faxrlanadigan, qadrini yaxshi anglaydigan, tevarak-atrofdagi yuz berayotgan barcha hodisalarga, yaxshi-yomon ishlarga o'zini daxldor deb biladigan, har qadamda vijdoni oldida hisob berib turadigan ma'naviy jihatdan yuksak, mustahkam e'tiqodli bir shaxs. U juda bosiq va osoyishta va ayni paytda faol, o'ta kamsuqum, xokisor va shu bilan barobar dono, donishmand. U o'zgalarga

ham, o'ziga ham talabchan, kezi kelganda hatto o'zini ayamaydigan, o'z hayotini ham qattiqqo'llik bilan sarhisob eta oladi. Shoirning lirik qahramoni orom bilmas, doimo izlanuvchi, masalaning mohiyatiga yetishga intiluvchi qalb egasi, u "in ham meguzarad" qabilidagi yupatuvchi, qulay falsafani keskin rad etadi. Uningcha:

*In ham meguzarad. Tugib oling dilga,
Chindan, hamma narsa, so'zsiz, o'tadi.
Lekin hamma narsa o'zi bilan birga
Umrning bir qismini olib ketadi.*

Agar shu o'tgan umr behuda kechsa, izziz kechsa-fojia; el-yurt manfaati uchun kechsa, o'tgan umrdan yorqin iz qolsa, bu endi quvonch, bunday odam uchun hattoki hayotning so'nggi bekati-o'lim ham qo'rqinchli emas:

*Bir-bir narsalarga o'tdi borligim,
Ko'zlarimdan o'tdi, o'tdi qo'limdan,
Dilimdan, tilimdan zarra-zarra o'tdim,
Endi men qo'rqmayman o'limdan!*

Asqad Muxtor she'rlari shakl jihatdan yangicha, lekin mazmuni, rihi, yo'nalishi tomonidan shu kunlarda yaratilayotgan an'anaviy vaznlardagi ko'pgina asarlarga ko'ra mumtoz she'riyatimizga yaqinroqdir. An'anaviylikka da'vo qilayotgan, ruboiy deb taqdim etilayotgan bir qator jo'n gaplar, oddiy so'z tizmalarini emas, Asqad Muxtorning teran, original fikrli miniatyuralarini bugungi kunning chinakam ruboiylari desa bo'ladi.

Asqad Muxtor lirik shoir, iste'dodli adib, mohir tarjimon sifatida o'zbek madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. U O'zbekiston xalq yozuvchi unvoniga sazovor bo'lgan.

Asqad Muxtor lirikasida inson hayoti, umr falsafasi alohida bir sahifani tashkil qiladi. Xususan, inson umrining tiniqligi va ravshanligi, yashashning asl mohiyati – bevosita hayot ranglariga mazmun ato eta olish bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Insonning hayot yo'li, umri, mehnat, go'zallik, insoniylik haqidagi teran mushohadalar mohiyat e'tibori bilan shoirning hayot va baxt haqidagi, inson tirikligi va taqdiri xususidagi o'y-mushohadalarining falsafiy asosiga aylanadi. Bu borada tabiat obrazlari (tuproq, nur, daraxt, olov, shamol, giyoh va h.k.) Asqad Muxtor fikrlarining ramzli, hikmatli mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Ona zamin hikmati, ona yurt tuprog'idan ungan ne'mat shoirning go'zallik, boqiylik xususidagi ishonch tuyg'ularini qat'iy lashtiradi. Quyoshki hayotning boqiyiligini ta'minlayotgan ekan, er hayotning yashnoqligini, ko'rkamligini belgilovchi asosdir. Zero, inson pokdomon hayoti, bunyodkor, salohiyatli mehnati bilan asriy zulmatlarda bir yorug' nuqta. Nurning sharofatini davom ettiradi.

Sen kashfiyot yolqini, otash,

*Asriy zulmatlarda bir yorug' nuqta.
Barcha mavjudotlar qalbingga tutash,
Bir oddiy giyohning oldida to'xta.
Ariq shildirashi, barglar shiviri,
Senga jon ozug'i, ruhingga dardkash.
Gullar bilan so'rash, hidlab har birin,
Kapalaklar bilan suhbatlash.
Javob bermasalar gapingga, mayli
Sovuq yulduzlarga tikilganda goh,
Bilginki, qalb qo'ri jonlilar tufayli,
Jonlilar jonliga doim xayrixoh.*

(“Sizga aytar so'zim”, 37-bet).

Asqad Muxtor lirikasi uchun xos xarakterli xususiyatlardan biri shundaki, shoir oddiy turmush realliklari, maishiy hayot ko'rinishlari bilan olamning boqiy manzaralari o'rtasida mushtaraklik ko'radi. Uning olamni ko'rishi, tushunishi va aks ettirishida ana shu garmoniya mazmundor poetik obrazlar orqali yaroq etib ko'zga tashlanadi. Bu – shoirning ijodiy individualligini tayin etishda yetakchi omillardan biri, deyish mumkin. YUqoridagi satrlar shoirning “Inson” she'ridan. Fursat, lahzalar o'tib boradi. SHu jarayonda inson umri ham tongdan o'tib, o'z shomi sari og'ib boraveradi. Mazkur holatdan olam larzaga tushmaydi. Lirik qahramonning ham qalbi faryod chekmaydi. Hayajonga berilmaydi. Go'yo hech narsa ro'y bermayotgandek, hamma narsa o'z maromida davom etayotgandek, o'z maqomida kechayotgandek. Inson shaxsidagi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar insoniylikning tabiatini tashkil etuvchi muhim omillardir. Va ular, o'z navbatida, axloqiy go'zallik, intellektual to'kislik singari bashariy qadriyatlar mohiyatini belgilaydi. Professor A.Rasulov ta'kidlaganidek: “Asqad Muxtor intellektual san'atkor sifatida o'zbek adabiyotidagi yangilikka intilish, modern adabiyotni mukammallashtirishga ham munosib hissa qo'shdi. Asqad Muxtor shaxsini uning ijodidan, intellektual asarlaridan ayri holda tasavvur etish mumkin emas. Uning yurish – turishi, gap – so'zlari, ijtimoiy faoliyati intellektual mohiyatini namoyon qilib turardi”¹. “Sen kashfiyot yoqlini...” she'rida kuzatilganidek, qalb qo'ri jonlilar, yuragida yoqlini borlar tufayli jonli, olovli. U tiriklikning kuniga yaraydi. Tirik jonlar umriga cho'g' qo'shadi. SHu taxlit tabiat ranglari, detallari lirik qahramonni olam va odam hayoti, taqdiri haqida fikrlashga undaydi. Zero, olamni tushunish hamda tushuntirishda Asqad Muxtor lirikasida inson va tabiat garmonik birlikda namoyon bo'ladi. Bu holni izohlashda

¹ Asqad Muxtor zamondoshlari xotirasida. – T.: Ma'naviyat, 2003. - B.178.

shoirning lirik qahramoni bizga ko'mak beradi. Qizg'aldoq bilan bezangan adirlar, chimzorning ko'k barqut gilami, ming xil qushlarning ming xil nag'masi, yaylovni to'ldirgan qo'y suruvlari, paxtakor va chorvador elning mehnatdagi nash'u-namosi yosh qallda ajoyib hislar, mahvkor to'lqinlar uyg'otishi shubhasiz. Bu tuyg'ularni, tansiq va ohori to'kilmagan hislar-kechinmalarni kim bilandir o'rtoqlashish ishtiyoqi, bayon etish zavqi lirik qahramon shuurini tobora band eta boradi. SHu ma'noda lirik qahramon uchun olam dardli xushbo'ylikdan iborat («Tongda bir dard bilan...») bo'lib ko'rinadi. U tabiatni bastakor-mashshoq deb, qushlar sayrashisiz bu olam naqadar qashshoq bo'ladi, deb biladi. Baxmal osmonda lovullab turgan yulduz ziyosi cho'ponlarning so'nmas gulxanisimon tuyuladi.

“SHunday o'tgan umr-armonsiz” she'rining lirik qahramoni dalalarga oshiqqan daryo to'lqinlarini savolga tutadi:

*U zilol, hayotbaxsh navolaring qani,
Jo'shqin yoshligingni qayga tashlading?
Bilaman, barini kumush tolalarga,
YUrtning bog'lariga bergansan.
Guzar oqshomlari,
Dehqon qalblariga
YOrug'lik, fayz bo'lib kirgansan.
Naqsh olma yuzida yonib,
Qandga to'ldirgansan
Nafis, taram-taram tomirlarini,
Uzoq yo'llaringda
Saxiylik bilan
Barini bergansan, barini.
Mana endi
So'nggi qadamingda
Jildirab oqasan darmonsiz.
SHunday o'tsam ekan men ham
Yo'llarimni!
SHunday o'tgan umr – Armonsiz.*

Bahor og'ushida yashnagan ko'm-ko'k adirlar, soyu qirlarning uzluksiz zumrad to'lqini, behad yaylovning sokin va ulug'vor manzarasi, charaqlagan dala quyoshi, bog'lar va maysazorlar o'zining manzaralari, hissiyotlari bilan birgalikda mehnatsevar, kamtarin, ahil qishloq kishilari hayotining go'zalligini tayin etadi. Mazkur go'zallik muallaq va abstrakt emas. U inson bilan, odamlarning hayoti va mehnati bilan boqiylik kasb etadi.

Biz “Tundaliklar” asari haqida soʻz yuritishdan avval, shoirning oʻnlab tun mavzuida yaratilgan sheʼrlarini koʻzdan kechirsak. Shoir nega tun haqida koʻp yozadi? Buning sababi nimada bolʻishi mumkin?

“Tunlari men topmagan rang yoʻq”, - deydi Asqad Muxtor “Nega sheʼr yozasiz” sheʼrida. “Xafa boʻlganimda yolgʻiz yuraman” sheʼrida esa yozadi:

Shabnam yaproqlarning yuvibdi gardin,
Hayolga chulgʻabdi gulzorni nasim.
Jonlar oromoni buzmasin dardim,
Tunni uygʻotmasin...

Yoki “Tuman” sheʼrida shunday satrlar koʻnglidan toʻkiladi:

Erib toʻkilishdan choʻchigansimon,
Asta suzar tunning oq qushi.
Asta suzar asal hidli tuman,
Ona –Yerning hayrli tushi...

Tun –yorugʻ umidlar belanchagi. Oydin nurlar enagasi. Shu boisdan ham jonliyu jonsiz mavjudot, tabiatu nabobot, barru-bahrlar oydin tunlar naykamalagida jilolanadi. Tun bir gal oydin hayollar suradi, boshqa bir gal quyuq fikrlari oppoq sutga chayilgandek koʻrinadi. Butkul borliq –hatto olma daraxtlarining kipriklari hma oydin shuʼlalarga evrilgan. Maysalar –koʻm-koʻk, chihirtka yam-yashil. Koʻrinadiki, chor atrofga qorongʻulik choʻmgani bilan mavjudot pinakka ketdi, degan gap emas ekan.

Asqad Muxtorning “Inson”, “Tun”, “Enaga”, “Tush”, “Yulduzim”, “Mendan nima qolar”, “Qalbim noziklashdi”, “Bezovtalik”, “Tugʻilish”, “Jimlik”, “Yoʻl” singari oʻzlab sheʼrlarida tun ranglari bilan sirlashadi, dardlashadi. Zero, ular shoirning yuragiga yaqin kishilari. Tun qay tariqa qoʻshiqlar aytayotganini, yigʻlayotganini, sim-sim nolalar chakyotganini eshita biladi. Sheʼrlari –shoirning tinglay bilgan, satrlarga silqib toʻkilgan oʻsha betakror tungi sadolar. “Tun” sheʼrida yozadi:

Oyni tishlab chiqib kelar tun,
Har yulduz qalqanda koʻksi teshilar.
Yaxshi tushlar koʻring, yaqin-yiroqdagi
Yuragimga yaqin kishilar,
Qaydadir oq, yumshoq, ehmondoʻst qish,
Parqu yostiqlar-la bezaydi toʻrin,
Qaydadir yam-yashil bogʻlar...Hammangiz
Yaxshi tuslar koʻring.

Tun –shoir talqinida sevgi –muhabbatlar jo’sh urgan, his-tuyg’ular so’zlagan, dillar –sergak, ko’zlar –kipriklar qanotida ko’kka uchgan ruhoniylar Vatan. Tun –ranglar qichqirgan, tovushlar –sharsharadek shag’illagan, xo’r-xo’r choy ichgan, ochiqqancha tamshanib non tishlagan –bir so’z bilan aytganda, tiriklik yumushlari bilan kuyib-pishib yashayotgan jonsarak hilqat. Shoir tovushlarning ranglarini ilg’ashiga ko’ra hayoti qay tariqa kechayotganligini payqash mumkin.

Xususan, Tun –shoirning hayot go’zalligi va ezgulik haqidagi ideallarini inkishof etuvchi yorug’likning ikkinchi bo’lagi. Shu boisdan ham shoirning poetik idroki va nigohi zimiston tun qa’ridan yorug’, umidbaxsh, xayrli ranglarni topadi, ko’radi va bizga ularning mazmunini so’zlab beradi. Tun –shoir talqinida ezib, bukib, yanchib tashlovchi qorong’u bir kuch emas. Ruhiyatini sindirib, ma’naviyatini mayib-majruh etuvchi yovuzlik timsoli ham emas. Tun –shoirning ko’ngliga o’tirishgan, iqi suyg’an, qadrdon bir dardkashi.

Asqad Muxtor tun ranglari bilan tovushlarini yurak to’ridan joy olgan azizlarim, mehribonlarim, deyishligi ham bejiz emas. Boisi, tun –oqlikning enagasi. Yorug’ oppoq rang tun og’shida yetilib, ko’z ochib kelayotir. Oppoq ranglar, yorug’lik esa bokiralik timsoli, go’zallik va ezgulik ramzi. Dunyoning pokdomonligini ta’minlab kelayotgan nur manbai:

Oq yo’l sizga, tungi yo’lovchilar,
Yangi manzillarda kutsin oftob.
Yaxshi tushlar ko’rgin, horg’in dunyo,
Ezgu orzularda oromingni top.
Hayrli tun, uyg’oq inson ruhi,
Muhabbat soflasin seni otashday,
Uchaver, jonajon yashil planetamiz,
Cheksiz zulmatlarda adashmay.

Ko’rinadiki, tun –hayotning hayrli bir bo’lagi. Oftob patiridan ushatib olingan kunning ikkinchi burdasi. Oppoq tonglarning beshigi. Yorug’ nurni yo’rgaklab, kamol toptirayotgan oydin belanchagi. Demakki, hayotning uzviyligini, davomiyligini ta’minlab kelayotgan boqiy go’zallikning ham manbai.

“Tundaliklar” asari ikki qismdan iborat. Unda adibning hayot, umr, insof, diyonat, yaxshilik, yomonlik, ezgulik haqidagi falsafiy o’y-fikrlari jamlangan. Asar bir qarashda uzuq-yuluq jumlarlar tizmasiga o’xshaydi. Lekin aslida bu yombi fikrlarning mazmuni nihoyatda teran. Asarda o’zbek xalqi tarixi, ma’naviyati, o’tmish madaniyati, kelib chiqish tarixi ham qimmatli fikrlar bayon qilingan. O’yg’oq tafakkur oxirigacha sog’lom fikrlar berdi: *“Chinakam badiiy asar hamma vaqt javobsiz savoldir. Bordiyu adib unda biror muammo ko’targan bo’lsa ham, bu –amalda hal qilib bo’lmaydigan muammodir. Agar muallif amalda*

hal qilinadigan vazifa qo'ysa, bu, asosan, ocherk yoki maqola bo'ladi. Yozuvchi esa tashviqotchi emas, shoir bo'lishi kerak". Yana "Ichimda bir nola bor. Goho shu nolani eshitib, Maksim Gorkiyning gapi esimga tushadi. Undan "Ahvolingiz qalay?" deb so'raganlarida "Maksimalno gorko!" deb javob bergan ekan", yoki "O'zimizda bo'lgan tuyg'ularni yashirish qiyinmi yoki o'zimizda bo'lmagan tuyg'ularni ifodalashmi? Shukur Burhon mening bu savolimga shunday javob bergan edi: "Ikkalasigayam artistizm kerak!". Ko'rib turganimizdek, adib jamiyatning barcha sohalarida, mavzularida o'ylaydi, o'z fikriga egaligini namoyon qiladi. "Uyqu qochganda" asari xuddi vasiyatnomadek tuyuladi. Asarni mutolaa qilar ekanmiz, unda yozilgan fikrlarning salmoqdorligi bizni hayrat olamiga oshno etadi: "O'zingniki emas, o'zgalarning nodonligi ham yozishga xalaqit beradi", "Boylikni boylik qilgan o'zimiz. Agar unga bunchalik sig'inmasak, u bir tiyinga ham arzimadi", "Haqiqat-xudodir. Uning borligini hamma biladiyu, o'zini hech kim ko'rmagan", "Xudo insonni bir umr baxt izlash azobi bilan jazolagan", "Agar ot o'zida qanchalik kuch borligini bilganida edi, tushovlab qo'yishlariga rozi bo'lmas edi".

Ko'rib turibsizki, Asqad Muxtor tinimsiz asar yozish bilan birga tinimsiz kitob mutolaa qilgan. Buni asardagi qimmatli fikrlar ham ko'rsatib turibdi. Adib asarda adabiyot olamida ro'y berayotgan yangiliklardan tashqari, siyosiy-ijtimoiy, ilmiy-madaniy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ham jonli tasvirlagan. U har tomonlama teran bilimli kishi bo'lgan. Asarda biz xasta adibning uyqusiz kechalarda xayolini bezovta qilgan dardlarni o'qiymiz, xayol ufqining kengligidan hayajonga tushamiz. Bu asar adibning uyqusiz, bezovta, halovatsiz, ruhiy va jismoniy azoblarining hosilasidir.

Asqad Muxtordagi bunday o'y-xayollarning uyg'onishida uning o'sha kezlari turkiy xalqlar tarixiga bag'ishlangan kitoblar, olis va yaqin tarixda o'tgan turkigo'y yozuvchilar va mutafakkirlarning asarlarini ko'p o'qiganligi ham sabab bo'lgan. Masalan, Amir Temur to'g'risidagi rus tarixchilarining kitoblarini o'qigan adib umrining so'nggi mkunlarida ulug' haqiqat ayon bo'lgach, "Tundaliklar"da bunday so'zlarni yozgan: "Rus yerlarni payhon qilgan, bosh chanoqlaridan tog'lar yasagan... Yo rab! Bu siymoni avlodlar qulog'iga quyilgan bunday tuhmatlardan mosuvo qilish, asliga qaytarish uchun tariximiz sahifalariga tez-tez ko'z solishimiz kerak emasmi?!" Mana, shu sahifalardan biri: "Amir Temur Kama daryosini kechib, Malasda to'xtadi... Navkarlari qirg'oqdagi ovullarga joylashdilar. Kun sovuq, qor qalin, yo'llar loy, yurish mushkul edi.

Zay daryosining quyi oqimi Bayrashxon tasarrufida edi. Temur shu xonga maktub yo'lladi, ya'ni qorli-qirovli kunlarni shu yerda o'tkzsam, deb...

Bayrashxon daryo yoqasidagi tepalikda bir qasr soldira boshlagan edi. Shu tayyor bo'lgach, Amir Temurni taklif qildi.

Amirga qasr juda yoqdi. Bayrashxonga xazinasidan mo'l-ko'l sovg'a va sarpo berdi. Shu yerda qishlab qoldi. Buxorodan kelib qazo qilgan ulamo Mulla Hofiz qabrini ziyorat qildi. Minzala vodiysining begi Mustafoxon saroyida mehmon bo'ldi..." Tarixning bunday yorqin sahifalarini bilgan adib sovet davrida o'zbek xalqining tarixi soxtalashtirilganini, avlodlar shu ruhda tarbiya olganligidan afsuslandi.

"Tundaliklar" asarida fano va baqo, tun va kun, go'zallik va xunuklik, nur va zulmat, tarix va kelajak singari boqiy masalalar qalamga olingan. Asarning kompozitsion tuzilishi yaxlit emas, didaktizm kuchli. Bu jihatdan asar Sharq adabiyotidagi naqlarni eslatadi. Badiiy tafakkur tabiatiga ko'ra Asqad Muxtorning bu asari qat'iy realistik; o'zida romantik ifoda uslublarini singdirgan. Hayotdagi go'zallikni ulug'lashi va tasdiqlashidek ustuvor fazilatlari bilan Asqad Muxtorning falsafiy "Tundaliklar" I XX asrning ikkinchi yarmi adabiyotimiz tarqqiyoti tarixida ko'rkam bir sahifa bo'lib qoladi.

Asqad Muxtorning sermulohazakor shaxsiyatida hayotdagi barcha narsalar insonning zamona talab etayotgan ma'naviy kamolotga erishishi uchun ibrat bo'ladigan ahamiyat kasb etadi. Adib hammavaqt ulardan shu mohiyatni izlagan. Xuddi jamiyat oldidagi mas'uliyatni yuksak darajada bajara olmayotgandek, o'z-o'zidan qoniqmaslik tuyg'ulariga, mulohazalariga berilib badiiy tadqiqot olib borgan.

BOB. "Tundaliklar" asarida shaxshning ma'naviy - intellektual yetukligi masalasi.

Sevimli adib Asqad Muxtor umrining so'nggi yillarida, og'ir kasal bo'lishiga qaramay, boy ma'naviyat durdonasini yaratib qoldirdi. Bu asar "Tundaliklar" asari edi.

"Kishi hayoti – erkinlikning sinovlaridan iborat, - deya yozadi adib, - odam haqiqatni erkin sinovlardan o'tib topadi. Mening erkim – mening shaxsimning ichki ijodiy kuchi: men ro'paramda paydo bo'lgan tayyor yaxshilik, yo yomonlik yo'lini tanlayman. Yaxshilik yo yomonlikni men o'zim yarataman, bu – mening erkim. Aks holda shaxs kamoloti yo'q. Haqiqat – mening mashaqqatli ma'naviy yutug'im: u erkim sinovlarida qo'lga kiritiladi. Menga birov tomonidan tiqishtirilgan haqiqat kerak emas" ("Tundaliklar", 15-bet). Erkinlik – ijtimoiy adolatning ko'rinishlaridan biri ekan, erk tuyg'usi ham ko'ngil hurriyatining erka farzandi. Aziz dilbandi. Ko'ngilki, erkinlikka intilmas ekan, o'z erkiga ega bo'lishdek oliy huquqni boy bergan ekan, u yolg'iz mutelikka mahkum. Inson shaxsi va faoliyati bir umrlik sinov. Aslida, tiriklikning o'zi tizginsiz sinov dovonlaridan iborat bo'lgan oxiri yo'q silsila. Bu–tug'ilish bilan o'lim oralig'idagi ma'naviy-intellektual komillikka erishish bosqichlaridir.

SHu ma'noda, ma'naviy komillik belgilari axloqiy go'zallikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri sifatida anglatiladi. Ana shu ma'naviy komillik belgilari yaxshilik qilish, mehr-oqibatlilik, sadoqat va h.k. bilan axloqiy go'zallikni birlashtirib, bog'lab turuvchi katta bir nur bor. Bu ko'ngil hurriyati, shaxsning ma'naviy erkinligidir. qachonki, dil erkinligi burch va mas'uliyatga, shaxs faoliyati – tabiatining tarkibiy qismiga aylansagina, u reallik, haqiqat ma'nosiga ega bo'ladi. Demak, tafakkur erkinligi axloqiy go'zallikka aylanishi uchun ijtimoiy adolat tuyg'usi real hayotiy mazmun kasb etishi, asl haqiqat maqomiga ega bo'lishi taqozo etilar ekan.

Ana shu jarayonda insonning iroda kuchlariga, ijodiy yaratuvchilik imkoniyatlariga adib estetikasida alohida hal qiluvchi o'rin beriladi: "Mo'jizakor kelib, "Mana bu – haqiqat, mana bu – uni ishlash imkoniyati, qaysinisini olasan?" desa, men keyingisini olardim. Tayyor haqiqat tashabbusni o'ldiradi. Umuman, hayotning ma'nosini yo'qotadi ("To'g'ri yo'lni partiya ko'rsatadi, uni izlash sening ishing emas", deyishardi. O'sha vaqtlar "Izlash baxti" she'rim "qaytgan". Keyingi yillarda bostirdim" ("Tundaliklar", 15-bet). YOxud, "Xudo insonni bir umr baxt izlash azobi bilan jazolagan" ("Tundaliklar", 15-bet); yoki, "Ovidiy "yolg'izlik baxti"ni maqtagan. Buyuk shoir kechirsin, men uchun yolg'izlikda ko'rgan huzur-halovatning alami og'ir" ("Tundaliklar", 15-bet); yoxud, "Qarilikdan qo'rqma, hali unga etish kerak"; "SHunday yillarni ko'rdikki, baxtli bo'lish uyat edi" ("Tundaliklar", 16-bet); yoki,

“Vaqt o‘tyapti!” deymiz sal hazinlik bilan. Bu gapni inson o‘zini ovutish uchun o‘ylab topgan. Aslida biz o‘zimiz o‘tayapmiz...” (Tundaliklar”, 17-bet).

Ko‘ramizki, mazkur jarayonda jamiyatdagi ijtimoiy tuzumlarni hamda turmush tartiblarini almashtirishda, shuningdek, ezgulik, adolat, go‘zallik ideallari asosida qayta bunyod etishda insonning yaratuvchilik faoliyatiga asosiy urg‘u berilayotir. Xususan, inson xarakteri, tafakkur madaniyati o‘zgarmas ekan, jamiyat tartiblariga, tuzumlarga, demakki, hayot tarzimizga o‘zgartish kiritish mumkin emas.

Inson erkin fikrlashi hamda faol harakatda bo‘lishi uchun ko‘nglida katta yorug‘lik bo‘lishi lozim. Bu, inson ma‘nan erkinlikka erishmay turib, jo‘shqin yaratuvchilik faoliyatini namoyon eta olmaydi, degan so‘zdir.

Demak, baxt tushunchasi insonning ma‘nan va aqlan erkinligi bilan bog‘liqda zuhur bo‘ladi. Aqlan muttasil, tadrijiy takomilga ega bo‘lgan fikrlash tarzini yaratmay turib ijtimoiy adolatni, emin-erkin turmush tarzini qaror toptirish mumkin emas. Ijtimoiy muammolarni hal etishda, echishda faol harakatda bo‘lish uchun shaxsning ma‘naviy-intellektual hurriyati, demakki, ko‘ngil erkinligi asosiy kuch hisoblanadi.

Demak, Asqad Muxtor estetikasida, shu jumladan “Tundaliklar” turkumiga kirgan qaydlarida baxt uchun kurash – bu insondagi insoniylik xususiyatlarini namoyon etish uchun serzahmat faoliyat ko‘rsatish demakdir. Insonlik mohiyati ham ana shu benazir xususiyatlar bilan omuxtalikda o‘zligini ko‘rsatadi. CHunonchi, birinchidan, inson tug‘ilgan asnodan e‘tiboran ko‘nglida nur yashiringan bo‘ladi. Bu – ilohiy bunyodkorlik, hayotsevarlik yorug‘ligidir. SHaxs ko‘nglidagi mazkur yaratuvchilik nuri fe‘li - faoliyatidagi komillik belgilarini yoritib, ko‘z-ko‘z etib turadi. Ikkinchidan, shaxsning ma‘naviy-intellektual faoliyatidagi ijodkorlik fazilati, hayotni yanada go‘zallashtirishga qaratilgan bunyodkorligi insoniylik mohiyatini ko‘rsatuvchi bir mezondir. Mazkur ijtimoiy baho inson va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik robitalarini ham asoslaydi. YA‘ni, shaxs o‘zini ma‘nan go‘zallik xislat-fazilatlari bilan nechog‘liq jilolantirar ekan, u mansub jamiyat ham shunchalar insoniydir. SHunchalar gumanistik mazmunini ko‘rsata boradi. “Bir qolipdagi tipovoy imoratlar, bir qolipdagi shaharlar xuddi shunday bir qolipdagi odamlar va bir qolipdagi fikrlovchilarning paydo bo‘lishiga yordam beradi”(Tundaliklar”, 13-bet); “Dehqon mehnati – hayotning ilohiy aqidasi”; “Talant dialektik mohiyatni ochadi, o‘rtamiyonalik eklektika darajasida qoladi”; “Har bir SHaxs – mustasnodir” (“Tundaliklar”, 12-bet); “Odamlar seni bilmasa ham, sen odamlarni bil” (“Tundaliklar”, 13-bet).

XULOSALAR

Biz adibning “Tundaliklar” asarini o’qib, unda qalamga olingan muammolarni tahlil qilib quyidagi to’xtamlarga keldik:

1. “Tundaliklar” turkumi lirik kundaliklar tarzida ko’ngil izhori bo’lishi bilan barobar ularda Asqad Muxtorning ijtimoiy-estetik qarashlari mujassamlashgan. YOzuvchining bedor qalbi, uyg’oq tafakkuri, tug’yonli kechinmalari adibning ijtimoiy ideali bilan badiiy-estetik qarashlarini o’ziga singdirgan go’zallik hodisasi sifatida qimmatlidir. SHaxs va jamiyat, olam va odam sir-sinoatlari haqidagi adib fikrlari she’riyatiga, adabiy-tanqidiy hamda publitsistik maqolalariga, poemalariga, qissa, hikoya va romanlariga zarrama-zarra singdirib yuborilgan. Ular nafaqat adabiyotshunoslarni, shuningdek jamiyatshunos, siyosatshunos, faylasuf va tarixchi olimlarni ham qiziqtiradi.

“Tundaliklar” – Asqad Muxtorning shaxs va jamiyat ma’naviyati, inson va tabiat, umr mas’uliyati va tiriklik ma’nosi, ezgulik, adolat, go’zallik va haqiqat, so’z san’ati va badiiyat haqidagi ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, badiiy-estetik qarashlarining muayyan qirralarini o’zida mujassamlashtirgan falsafiy mushohadalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008.
2. Adabiyotimizning yarim asri. 1-kitob. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: Badiiy adabiyot, 1967.
3. Adabiyotimizning yarim asri. 2-kitob. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: Badiiy adabiyot, 1975.
4. Asqad Muxtor zamondoshlari xotirasida. – Toshkent, 2003.
5. Muxtor A. Tanlangan asarlar. – T.: O'zdnashr, 1958. - 264 b.
6. Muxtor A. 99 miniatyura. – T.: O'zdnashr, 1962. - 112 b.
7. Muxtor A. Quyosh belanchagi. Poema va she'rlar. – T.: Adabiyot va san`at, 1971. - 96 b.
8. Muxtor A. YOsh do'stlarimga. Adabiy suhbatlar. 1-kitob. – T.: YOsh gvardiya, 1971. - 74 b.
9. Muxtor A. Sizga aytar so'zim. SHE'rlar. – T.: Adabiyot va san`at, 1978. - 96 b.
10. Muxtor A. Sirli nido. SHE'rlar. – T.: Adabiyot va san`at, 1984. - 80 b.
11. Muxtor A. YOsh do'stlarimga. Adabiy suhbatlar. 2-kitob. – T.: YOsh gvardiya, 1980. - 160 b.
12. Muxtor A. Ildizlar. Qissalar va hikoyalar. – T.: YOsh gvardiya, 1984. - 176 b.
13. Muxtor A. Yillarim. SHE'rlar. – T.: YOzuvchi, 1990. - 184 b.
14. Muxtor A. Uyqu qochganda... Tundaliklar. – T.: Ma'naviyat, 1997. - 32 b.